



THE CONCEPT OF FATWA IN ISLAMIC LAW AND ITS HISTORICAL EVOLUTION

Sadriddinova Halima

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

1st year master's student in Islamic Studies

Email: xalimasadriddinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178134>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2026

Accepted: 13th May 2026

Online: 14th May 2026

KEYWORDS

Fatwa, ifta, ijti had, taqlid, fiqh, sharia, mufti.

ABSTRACT

This article analyzes the formation and gradual development of the science of issuing fatwas, which is an important part of Islamic jurisprudence. It explains the lexical and terminological meanings of the concept of "fatwa" and highlights its role in religious and legal life. The study also examines the historical development of fatwa issuing from the time of the Prophet Muhammad s.a.v. to the periods of the Companions, the Tabiun, and later Islamic legal schools.

The article compares different types of fatwas, including legislative, juristic, and case-based fatwas, and explains their practical importance. In addition, it discusses the influence of ijti had and taqlid periods on the methodology of issuing fatwas and describes the scientific and methodological foundations of the mufti's work. The results of the research help to better understand the historical and theoretical aspects of the science of fatwa.

КОНЦЕПЦИЯ ФЕТВЫ В ИСЛАМСКОМ ПРАВЕ И ЕЕ ИСТОРИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ

Садриддинова Халима

Международная академия исламоведения Узбекистана

Студентка 1-го курса магистратуры по исламоведению

Электронная почта: xalimasadriddinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178134>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2026

Accepted: 13th May 2026

Online: 14th May 2026

KEYWORDS

Исламское право, фетва, усуль аль-ифта, иджтихад, таклид, фикх, шариат, муфтий.

ABSTRACT

В данной статье анализируется процесс становления и поэтапного развития науки вынесения фетв, являющейся важной составной частью исламского правоведения. Освещаются лексическое и терминологическое значения понятия «фетва», раскрывается её место в религиозной и правовой жизни. Кроме того, на научной основе исследуется историческое развитие деятельности по вынесению



фетв, начиная с эпохи Пророка Мухаммада с.а.в. периода сподвижников, табиюнов и вплоть до эпохи последующих правовых школ. В статье проводится сравнительный анализ таширийских, фикхийских и джузийских видов фетв, а также показывается их практическое значение. Наряду с этим особое внимание уделяется влиянию эпох иджтихада и таклида на методологию вынесения фетв, раскрываются научно-методологические основы деятельности муфтия. Результаты исследования способствуют более глубокому историческому и теоретическому осмыслению науки вынесения фетв.

ISLOM HUQUQIDA FATVO TUSHUNCHASI VA UNING TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Sadriddinova Halima

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Email: xalimasadriddinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178134>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2026

Accepted: 13th May 2026

Online: 14th May 2026

KEYWORDS

Islom huquqi, fatvo, usul
al-ifto, ijti hod, taqlid, fiqh,
shariat, muftiy.

ABSTRACT

Mazkur maqolada islom huquqshunosligining muhim tarkibiy qismi bo'lgan fatvo berish ilmining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Unda "fatvo" tushunchasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari yoritilib, uning diniy va huquqiy hayotdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, fatvo berish faoliyatining Payg'ambar Muhammad s.a.v. davridan boshlab sahobalar, tobeinlar hamda keyingi fiqhiy maktablar davrigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyoti ilmiy asosda o'rganiladi. Maqolada tashri'iy, fiqhiy va juz'iy fatvo turlari o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari, ijti hod va taqlid davrlarining fatvo berish metodologiyasiga ta'siri ham alohida e'tibor markazida bo'lib, muftiylik faoliyatining ilmiy-uslubiy asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijalari fatvo berish ilmini tarixiy va nazariy jihatdan chuqur anglashga xizmat qiladi.

KIRISH

Islom huquqshunosligi tarixida fatvo berish ilmi muhim o'rin egallagan ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur ilm sohasi

musulmon jamiyatining diniy-huquqiy ehtiyojlarini qondirishda, shariat hukmlarini hayotiy masalalarga tatbiq etishda hamda fiqhiy qarashlarning



shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Fatvo ilmining taraqqiyotida dastlab payg ‘ambar Muhammad s.a.v., sahobalar va tobeinlar davri alohida o ‘rin tutadi. Ayniqsa, mujtahid ulamolarning ijthod faoliyati orqali yuzaga kelgan fiqhiy qarashlar keyingi davrlarda fatvo berish metodologiyasining shakllanishiga asos bo ‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, mazhablar davriga kelib fatvo berish usullari, muftiylik faoliyatining ilmiy mezonlari hamda hukm chiqarish tartiblari yanada takomillashgan. Bu esa fatvo berish ilmining mustaqil va chuqur nazariy asosga ega bo ‘lgan fan sifatida rivojlanishiga zamin yaratgan.

Mazkur maqolaning maqsadi — islom huquqshunosligida fatvo berish ilmining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, uning tarixiy taraqqiyot jarayonini yoritish hamda ijthod va taqlid davrlarining fatvo metodologiyasiga ta’sirini ochib berishdan iborat.

ASOSIY QISM

Islom huquqshunosligi o ‘zining shakllanishi va rivojlanish jarayonida turli bosqichlarni bosib o ‘tgan murakkab ilmiy tizimlardan biridir. Ushbu tizim doirasida fatvo berish jarayoni alohida o ‘rin egallab, u shar’iy hukmlarni muayyan vaziyatlarga tatbiq etishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo ‘ladi. Fatvo berish faoliyati fiqh ilmining amaliy ifodasi bo ‘lib, u nazariy qoidalarni real hayot sharoitida

qo ‘llash orqali o ‘z mohiyatini namoyon etadi.

Fatvo berish jarayonining ilmiy mohiyatini chuqur anglash uchun, avvalo, “fatvo” tushunchasining o ‘zi qanday mazmunni ifodalashi, uning lug ‘aviy va istilohiy jihatlari nimadan iborat ekanligini aniqlab olish zarur hisoblanadi. Zero, mazkur tushuncha nafaqat fiqhiy hukm chiqarish bilan bog ‘liq amaliy faoliyatni, balki muayyan ilmiy-metodologik yondashuvni ham o ‘zida mujassam etadi.

“Fatvo” so ‘zining lug ‘aviy ma ‘nosi: “Fatvo” — fa harfi fatha bilan o ‘qiladi. Yana aytiladiki, u fa harfi damma bilan ham keladi, xuddi “Toj al-‘arus”da keltirilganidek. Lekin birinchi shakl to ‘g‘riroq va mashhurroq. “Fatyo” esa fa harfi damma bilan o ‘qiladi. Ikkalasi ham “fatovi” va “fatavo” shakllarida jamlanadi. Bu ikki jam shakli ham ulamolar so ‘zlashuvida keng qo ‘llanadi¹.

Istilohda fatvo: Diniy savollarga berilgan javob ma ‘nosida qo ‘llaniladi. Bu yerda “shar’iy masala” emas, balki “diniy masala” iborasini ma ‘qul ko ‘riladi. Chunki muftiy faqat amaliy (fiqhiy) hukmlargagina javob bermaydi. Ba ‘zan e ‘tiqodiy masalalarga ham javob beradi². Fatvo — islomda muftiy yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror, hukm yoki izoh³.

Islomda fatvoning o ‘rni va ta ‘siri muhim bo ‘lishi bilan birga o ‘ta mas ‘uliyatli vazifa ham hisoblanadi, chunki fatvoda Allohning hukmlarini bayon qilish maqsad qilinib, unda halol-

¹Muhammad Taqiy Usmoniy. Usul al-ifto va adabuhu. — Damashq: Dor al-qalam, 2018. — B. 10.

²Muhammed Takî Osmanî. Fetva usulü. — İstanbul : Yasin Yayınevî, 2010. — B. 5.

³Saloh Abul-Hoj. Fiqh at-tarjih al-mazhabiy inda as-sadati al-hanafiyya. — Urdun: Dorul-foruq, 2019. — B. 11.



harom, savob-gunoh, jannat-do'zax orasidagi amallar ko'rsatib beriladi. Shu nuqtai nazardan, musulmonlarning turmush tarzida yuzaga kelib turgan turli masalalarning javobini berish farzi kifoya sanaladi. Muftahidlar tomonidan ushbu so'rovlarga berilgan javoblar fatvo deb yuritiladi va bu tushuncha turli fiqhiy savollar bo'yicha yirik musulmon faqihlarining qat'iy fikrlarini ifodalaydi⁴.

So'ngra "fatvo" va "ifto" so'zlari ulamolar so'zlashuvida turli xil ma'noda ishlatilgan bo'lib, ularni uch qismga ajratish mumkin: tashri'iy fatvo, fiqhiy fatvo va juz'iy fatvo. Birinchidan: tashri'iy fatvo: Shoriy tomonidan chiqarilgan fatvodir. U yoki Qur'oni karimda tilovat qilinadigan vahiy orqali, yoki Rasululloh s.a.v.ning sunnatlarida tilovat qilinmaydigan vahiy orqali savolga javob tarzida, yoki Payg'ambar s.a.v. zamonlarida yuz bergan bir voqeaga bayon sifatida kelgan bo'lib, natijada umumiy shariat hukmiga aylangan⁵. Masalan;

وَيَسْتَفْتُونَكَ فِي النِّسَاءِ قُلِ اللَّهُ يُفْتِيكُمْ فِيهِنَّ وَمَا يُتْلَىٰ عَلَيْكُمْ فِي الْكِتَابِ

"Sizdan (ey, Muhammad) ayollar to'g'risida fatvo so'raydilar. Ayting: "Ular to'g'risida Alloh taolo sizlarga fatvo berur⁶." (Niso surasi, 127-oyat)

Demak, istilohda bu so'zning ma'nosi: "diniy masala haqida javob berish"dir. Bu "shar'iy" so'zi o'rniga aynan "diniy" so'zini tanladik. Chunki mufti faqat amaliy shariat hukmlari

haqida javob bermaydi, balki ba'zan e'tiqodiy diniy masalalar haqida, hadislarning ma'nosi haqida, ularning sanadlari qanday ekanligi haqida va shunga o'xshash din va uning ilmlariga oid boshqa masalalar haqida ham javob beradi⁷.

Fatvo berish ilmini o'rganishda uning tadrijiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni bir necha asosiy davrlarga ajratish mumkin.

Payg'ambar (s.a.v) davrida fatvo bevosita qonun chiqaruvchi hokimiyat Payg'ambar (s.a.v)ga tegishli bo'lib, shariatning manbai esa, u zotga nozil qilingan vahiy edi⁸. Fatvo berish mansabi ham birinchi bo'lib bajargan zot ham payg'ambar Muhammad (s.a.v)dirlar. U zot Alloh taolo tomonidan kelgan ochiq-oydin vahiy orqali fatvo berar edilar. U zotning fatvolari hukmlarning jamlanmasi bo'lib, Qur'oni karimdan keyin islom shariatining eng katta manbalaridan hisoblanadi. Sahobalar (r.a.) esa bu fatvolarni qalblarida va yozuvlarda saqlar edilar⁹.

Rasululloh (s.a.v) davrida u zotdan boshqa hech kim fatvo berish mansabi bilan shug'ullanmagan. Biroq ba'zan u zot fatvo berish yoki hukm chiqarish ishini ba'zi sahobalariga topshirganlar. Misol: Hokim rivoyat qilgan hadisda, Abdulloh ibn Amr (r.a.) shunday deydi: ikki kishi Payg'ambar (s.a.v.) huzurlarida tortishib qolishdi. Shunda u zot Amrga:

⁴ D.Nazimjanova. Fatvo va fatvo to'pamlarning yuzaga kelish va shakllanish tarixi <https://cyberleninka.ru/article>

⁵ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usul al-ifto va adabuhu. – Damashq: Dor al-qalam, 2018. – B. 10.

⁶ Abdulaziz Mansur. Qur'on karim ma'nolarining tarjimai va tafsiri. – T.: Toshkent islom universiteti, 2004. – B.98.

⁷ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dor al-qalam, 2018. – B. 11.

⁸ Ramazon Butiy. Muxollasu at-tarix at-tashrii al-islamiy <https://www.naseemalsham.com/>

⁹ Muhammed Takî Osmanî. Fetva usulü. – İstanbul : Yasin Yayınvevi, 2010. – B. 8.



“Ularning o‘rtasida hukm chiqargin”, dedilar. U: “Yo Rasululloh, siz huzurda bo‘la turib men hukm qilaymi?” dedi. U zot: “Ha. Agar to‘g‘ri hukm qilsang, senga o‘n ajr bor. Agar ijti hod qilib xato qilsang, senga bir ajr bor”, dedilar.

Birinchi davrning ikkinchi bosqichi Nabiy alayhissalomning vafot etishlari bilan boshlangan. Shuning uchun sahobalar davri deganda, faqat va faqat Ularning Nabiy alayhissalom bilan birga bo‘lgan davrlari nazarda tutilmaydi. Shunga ko‘ra, sahobalarning davri ham ikki qismga bo‘linib, birinchi qism ularning Payg‘ambar alayhissalom hayotliklari davri bo‘lsa, ikkinchisi esa, u zot vafot etganlaridan keyingi davrga to‘g‘ri keladi¹⁰. Fatvo tarixidagi bu yo‘lni keyinchalik sahobalar davom ettirishga qattiq bel bog‘ladilar. Mazkur davrda paydo bo‘lgan turli muammo va savollarga barcha sahobiylar ham javob berishga qodir bo‘lmaganlar. Ular orasidan Abu Bakr, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Mas‘ud, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Abbas, Abdulloh ibn Umar va Oisha (r.a.)lar fatvo borasida eng ko‘p murojaat qilingan sahobalar sanaladi. O‘sha davrda sahobalardan 140 nafari fatvo berish darajasiga yetgan edilar¹¹.

Aynan shu davrdan mazhablarning ham shakllanish davri boshlandi. Biror masalada hukm bo‘lsa bu aynan qaysi sahobaning so‘zi ekaniga e‘tibor qaratilar va shu sahobaning mazhabi deya aniq ko‘rsatilardi. Sahobalar Rasulullohdan shaxsan so‘rash imkonlari bo‘lmasa biladigan sahobalardan so‘rab

masalarning javoblarini izlar edilar. Masalan Ammor ibn Yosir tayammum bo‘yicha, Zayd ibn Sobit faroiz bo‘yicha qolgan sahobalardan olimroq edilar. Ushu sahobalar o‘zlari mohir bo‘lgan sohada savollarga javob berganlar. Bundan tashqari Rasululloh (s.a.v.) islom dinini tarqatish uchun turli hududlarga vakillarini yuborganlar va ularga masalalar yuzasidan fatvo berishga ijozat berganlar. Har bir sahoba Qur‘on va sunnatga, manfaat va sababga tayanib fatvo bergan.

Shariy dalillar va insonlarning manfaati zid kelgan holatda shariy dalillar so‘zsiz olingan. Sahobalarning fatvolari mo‘tadil va noqislikdan holi bo‘gan deyish mumkin¹². Shuningdek, Rasululloh (s.a.v) ba‘zi sahobalarni uzoq yurtlarga yuborganlar va ularga fatvo berish hamda hukm chiqarishga ruxsat berganlar. Muhaddislar Muoz ibn Jabal (r.a.) sahobalaridan rivoyat qilganlar: Payg‘ambar (s.a.v) Muozni Yamanga yubormoqchi bo‘lganlarida, unga: “Agar senga bir ish yuzasidan hukm chiqarish lozim bo‘lib qolsa, qanday hukm qilasan?” dedilar. U dedi: “Allohning Kitobi bilan hukm qilaman.” U zot dedilar: “Agar Allohning Kitobida topa olmasang-chi?” U dedi: “Rasulullohning sunnatlari bilan.” U zot dedilar: “Agar Rasulullohning sunnatlarida ham, Allohning Kitobida ham topa olmasang-chi?” U dedi: “O‘z ijti hodim bilan hukm qilaman va bunda sustkashlik qilmayman.” Shunda Rasululloh (s.a.v) uning ko‘ksiga urib: “Allohga hamd bo‘lsin, U Allohning Rasuli elchisini

¹⁰ Muhammad Ramazon Butiy. Fiqh ilmi tarixi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B.23.

¹¹ Saloh Abul-Hoj. Hanafiy mazhabiga teran nikoh. – Toshkent: Hilol-nashr, 2024. – B.64.

¹² Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. – Toshkent: Hilol-nashr, 2024. – B.15



Rasulullohni rozi qiladigan narsaga muvaffaq qildi”, dedilar.

Bu hadisni ba’zi muhaddislar Horis ibn Amrning noma’lumligi va undan rivoyat qilgan Muoz sahobalarining ham noma’lumligi sababli zaif deb baholagan bo’lsalar-da, barcha davr va o’lkalardagi ulamolar uni qabul qilganlar¹³.

Sahobalarning bergan fatvolari Abbosiy xalifalar davridan boshlab yozib jamlandi, xususan Xalifa Ma'mun davrida Ibn Abbosning bergan fatvolari 20 jildli kitob sifatida jamlandi¹⁴. Bugungi kunda ham ko’plab fatvo bergan sahobalarning fatvolari bir kitobga jamlangan bo’lib Muhammad Rovvasning "Mavsuatu fihi Abi Bakrin as-Siddiq" asarini, "Mavsuatu fihi Umar ibni Xattob", doktor Ruvay’iy ibn Rojih Rahimiy tomonidan yozilgan "Fiqhu Umar ibni Xattob" Valiyulloh Dehlaviy rahimahulloh tomonidan yozilgan "Fiqhu Umar"ni misol keltirish mumkin¹⁵.

Fatvo ilmining shakllanishi saodat asri va undan keyingi tobeinlar davri bilan uzviy bog’liqdir. Sahobalardan keyin fatvo berishda murojaat qilinadigan asosiy manba tobeinlarning yirik olimlari bo’lgan. Ular musulmonlar fath etgan hududlarda keng tarqalgan edilar. Tobeinlar davriga kelib mujtahid faqihlar ikki yo’nalishda faoliyat olib borishdi.

Tobein faqihlari ikki guruhga bo’lingan: Birinchi guruh: asosan hadis

rivoyati bilan shug’ullangan va fiqh haqida faqat Qur’on va sunnatda ochiq bayon qilingan masalalardagina gapirgan kishilar. Ular hali yuz bermagan juz’iy masalalarni chiqarishga¹⁶ e’tibor bermaganlar.

Ikkinchi guruh: o’zini fiqh va fatvoga bag’ishlagan kishilar bo’lib, ular faqat hadis va rivoyatlar bilan cheklanib qolmaganlar. Balki masalalarni jamlash, juz’iy masalalarni tarmoqlash ustida ijtirod qilganlar. Natijada fiqhning har bir bo’limida ularning fatvolari mavjud bo’lgan. Ularning ba’zilari o’z fiqhlarini kitob holiga keltirganlar. Masalan, Sha’biy va Makhul ibn Abu Muslim¹⁷ shular jumlasidandir.

Shulardan: Madina faqihlari: Said ibn Musayyib, Abu Salama ibn Abdurrahmon ibn Avf, Urva ibn Zubayr. Bu zotlar yetti fuqao deb nomlangan. Makka faqihlari: Ato ibn Abu Ravoh, Aliy ibn Abu Tolha, Mujohid ibn Jabr, va boshqa tobeinlar. Kufa faqihlari: Ibrohim Naxaiy, Omir ibn Sharohbil ash-Sha’biy, Alqama, Said ibn Jubayr, Masruq ibn Ajda’ va boshqa ko’plab tobeinlar shular jumlasidan. Basra faqihlari: Hasan Basriy, Muhammad ibn Sirin, Abul-Oliya¹⁸.

Islom qonunchiligining to’rtinchi davri islomiy va ijtimoiy ilmlarning kengaygani tufayli "Oltin asr", deb nomlangan davrdir. "Ahl al-hadis" va "Ahl al-ra’y" maktablari yaqinlashuvi

¹³ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usul al-ifto va adabuhu. – Damashq: Dor al-qalam, 2018. – B. 40

¹⁴ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usul al-ifto va adabuhu. – Damashq: Dor al-qalam, 2018. – B. 37

¹⁵ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usul al-ifto va adabuhu. – Damashq: Dor al-qalam, 2018. – B. 37.

¹⁶ istinbot qilishga

¹⁷ Huzayl qabilasiga mansub ozod qilingan qul bo’lib, faqih va hofiz olim edi. U Shom ahlining

mashhur olimlaridan sanalgan. Asli Kobuldan bo’lib, dastlab Misrda Huzayl qabilasiga mansub bir ayolning quli edi. Keyin ozod qilindi va ilm talabida safarga chiqib, turli yurtlarni kezdi.

¹⁸ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo’nalish va kitoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – B.62.



oqibatida ikkisining birlashishi hamda Ahl as-sunna val-jamoa fiqhiy usullari komillik darajasiga erishishi ortidan to'rt fiqhiy mazhab mujtahidlari yuzaga keldi. To'rt imom — Imom Abu Hanifa, Imom Molik, Imom Shofe'iy va Imom Ahmad ibn Hanbal hamda mazkur imomlarga nisbatan berilgan to'rt mazhab paydo bo'ldi¹⁹.

Islom qonunchiligining beshinchi bosqichi yangi mazhablar paydo bo'lishi to'xtagan davrdir. Unda yakka shaxslar uchun ham, davlatlar uchun ham to'rtinchi bosqichdagi mu'tabar mazhablar bilan kifoyalanish va ularga taqlid qilish, har bir mazhab bo'yicha mujtahid va mazhablar o'rtasini taqqoslay oladigan ulamolar keng tarqalgan. Fiqh ilmining rivojlanish jarayonida muhim bosqichlardan biri — bu taqlid va tarjih davri hisoblanadi. Ushbu davr hijriy III asrdan keyingi bosqichni o'z ichiga olib, unda fiqhiy mazhablar to'liq shakllanib bo'lgan, mujtahid imomlarning qarashlari tizimlashtirilgan va fatvo berish faoliyati yangi metodologik asosga o'tgan²⁰.

Mazkur davrning asosiy xususiyati shundaki, unda mustaqil mutlaq ijti-hod darajasi sezilarli darajada kamayib, uning o'rnini mazhab doirasida ijti-hod va taqlid asosida fatvo berish egallagan. Taqlid davrida muftiylar endilikda hukm chiqarishda bevosita Qur'on va sunnatdan mustaqil ijti-hod qilishdan ko'ra, avvalgi imomlar — xususan, mazhab asoschilari va ularning shogirdlari tomonidan bayon etilgan qavllarga tayanadigan bo'ldilar. Bu holat

fiqhiy barqarorlikni ta'minlash, tartibsiz ijti-hodning oldini olish va diniy hukmlarning izchilligini saqlashga xizmat qildi. Taqlid sahobalar davrida ham bo'lgan. Ulardan ilm bilan shug'ullanmaganlari va ma'lum masalalarda o'zlarining ijti-hodlari bo'lmagan sahobalar, taniqli faqih sahobalarga murojaat qilib ularning maslahatlari bo'yicha ish qilganlari tarixdan ma'lum.

Bu davrning Imom G'azzoliy, Izz ibn Abdussalom, Imom Saraxsiy, Imom Qarofiy, Ibn Daqiq Iyd va Imom Navaviy kabi buyuk faqihlari mujtahidlar edi, lekin ular mazhab mujtahidlari, deb ataladi. Ular hukmlarni shar'iy matnlardan qiyos va boshqa shu kabi uslublar orqali olishsa ham, hukm chiqarishda oldingi to'rt imom joriy qilgan qoidalarga tayanishadi. Ya'ni ushbu daraja mujtahidining ijti-hodi ma'lum mazhab doirasida, oldingi to'rt imomning biri tomonidan tartibga solingan "usul al-fiqh", ya'ni shar'iy matnlarni sharhlash qoidalari asosida bo'ladi. Bu davrga mansub faqihlar shar'iy hukmlarga tegishli bir qavl-ni boshqasidan tarjih qila boshladilar. Ularning ijti-hodlari shu yo'sinda ko'zga tashlandi. Hamda avvalgi kitoblarga sharhlar va hoshiyalarning paydo bo'lishi. Masalan, Imom Navaviyning muxtasar uslubda bitilgan "al-Minhaj" asariga Imom Ibn Hajar o'n jildlik "Tuhfat al-fiqh" nomli sharh yozgan. Ushbu asarni Imom Shirbiniy ham sharhlagan va uni "Mug'niy al-muhtoj", deb atagan. Imom Navaviyning o'zi ham

¹⁹ Muhammad Ramazon Butiy. Fiqh ilmi tarixi va rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: Hilol-nashr, 2023. — B.143.

²⁰ Muhammad Ramazon Butiy. Fiqh ilmi tarixi va rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: Hilol-nashr, 2023. — B.306.



Sheroziyning fiqhga oid “al-Muhazzab” asarini sharhladi²¹.

Hanafiy mazhabida ham fiqhning barcha boblarini qamrab olgan batafsil fiqhiy asarlar ta’lif etildi. Imom Saraxsiyning “al-Mabsut”, Burhonuddin ibn Moza Buxoriyning “al-Muhit al-Burhoniyy” va Alouddin Kosoniyyning “al-Badoe as-sanoe” asarlari shular jumlasidandir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fatvo berish ilmi islom huquqshunosligining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida saodat asridan boshlab izchil rivojlanib

kelgan. Dastlab Qur’ on va sunnat asosida shakllangan ushbu ilm sahobalar va tobeinlar davrida ijti hod faoliyati orqali boyib bordi. Keyinchalik fiqhiy mazhablarning yuzaga kelishi bilan fatvo berish metodologiyasi yanada tizimlashdi va muftiylik faoliyati ilmiy mezonlarga asoslandi. Ayniqsa, ijti hod va taqlid davrlarida fatvo ilmi fiqhiy qarashlarni tartibga solish hamda shar’iy hukmlarning izchilligini ta’minlashda muhim omil bo’lib xizmat qildi.

References:

1. Abdulaziz Mansur. Qur’on karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri. – T.: Toshkent islom universiteti, 2004. – 713 b.
2. Muhammad Taqiy Usmoniy. Usul al-ifto va adabuhu. – Damashq: Dor al-qalam, 2018. – 411b.
3. Muhammed Takî Osmanî. – İstanbul : Yasin Yayivnevi, 2010. – 215 b.
4. Muhammad Ramazon Butiy. Fiqh ilmi tarixi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – 307 b.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. – Toshkent:Hilol-nashr 2024. – 591 b.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo’nalish va kitoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – 311 b.
7. Saloh Abul-Hoj. Hanafiy mazhabiga teran nikoh. – Toshkent:Hilol-nashr 2024. – 556 b.
8. Saloh abul Hoj. Fiqh at-tarjih al-mazhabiy inda as-sadati al-hanafiyya. – Urdun: Dorul-foruq, 2019. – 580 b.
9. <https://www.naseemalsham.com/>
10. <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1322>
11. <https://maxdum.uz/fatvo-berishga-kim-haqli>
12. <https://hidoya.uz/uz/news/1861>
13. <https://cyberleninka.ru/article>

²¹ Muhammad Ramazon Butiy. Fiqh ilmi tarixi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B.323.